

PUDRAT SHARTNOMASI

2022 y. "6" 6

2022-160-4-64-XT-
son

Muborak tuman.

Muborak tuman Xalq ta'limi bo'limi, (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi,) nomidan **Nizom** asosida harakat qiluvchi **I.Usmonov** bir tomondan va **Islombek Baraka-Invest MChJ** (keyingi o'rinlarda **pudratchi deb yuritiladi**) nomidan **Nizomi** asosida harakat qiluvchi **Islombek Baraka-Invest MChJ D. Suyunova** ikkinchi tomondan quyidagilar tug'risida mazkur shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o'z tavakkalchiligiga asoslangan va o'zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig'iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini: tuzilgan loyiha sveta hujjatlariga asosan joriy tamirlash ishlarini bajarishni, Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Shartnoma bahosi 239 000 000.00 so'mni tashkil etadi. (Ikki yuz o'ttiz to'qqiz million) sumni tashkil etadi.

2.2. Shartnoma bahosi o'z ichiga quyidagilarni oladi: ishlarni uz muddatida bajarish yani 2022-yil 06 iyundan 2022 -yil 06 iyul kuniga qadar.

2.3. Shartnomaning 2.1- bandida ko'rsatilgan baho dastlabki bo'lib, so'nggi baho Pudratchi taqdim etgan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Shartnoma bahosi inflyatsiya natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining oshishi bilan bog'liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

3. TO'LOV SHARTLARI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: "Buyurtmachi" tamirlash ishlarini boshlash uchun "Pudrathiga" shartnoma narxining 30% yoki 71 700 000.00 (Yetmish bir million yetti yuz ming) so'm miqdorida oldindan to'laydi. Qolgan 70% yoki 167 300 000.00 (bir yuz oltmish yetti million uch yuz ming) so'mni yakuniy to'lovni "Pudrathiga" ishlar bajarilganligini tasdiklovchi hujjat f-2, f-3, yoki dalolatnoma taqdim qilingandan

3.2. To'lov shakli: to'lov cheklariga asosan.

3.3. Shartnoma bo'yicha so'nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so'ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, 10 kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni ishlarning kalendar rejasida belgilangan muddatlarda bajaradi (1-ilova).

4.2. Buyurtmachi quyidagi muddatlarda Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'laydi qisman.

4.3. Shartnomaning amal qilish muddati:

Boshlanishi – 2022 yil 06 iyun

Tugashi – 2022 yil 06 iyul

5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. Pudratchining majburiyatlari:

o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish;

loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish;

o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat binolarni qurish; ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish;

qurilish maydonchasida texnika va yong'in xavfsizligi hamda qurilish maydonchasining qo'riqlanishi bo'yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

qurilish obyektlarining sug'urta qilinishini ta'minlash;

qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish

dalolatnomasi imzolanganidan keyin 10 (O'n) kunlik muddatda

qurilish maydonchasidan o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

5.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish;

shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun

Pudratchiga haq to'lash;

Pudratchi ningyozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab

2 hafta ichida obyektни qabul qilib olish.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma bahosining foizi miqdorida neustoyka to'laydi.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6.3. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar tugallangandan so'ng o'ziga tegishli materiallarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, Buyurtmachi qurilish maydonchasi bo'shatib berilgan sanaga qadar Pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to'lashni to'xtatib turishga haqli.

6.4. Neustoykani to'lash taraflarni majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

7.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz 2 oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflar uchun qat'iy va majburiy hisoblanadi.

9. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

Pudratchi:

Muborak tumani Bobur MFY, 4-
a mittituman
8/3-uy, 32-xonadon "Islombek
Baraka-Invest" MChJ
Hisob-kitob raqami:
2020800000459853001
Bank: Toshkent sh, TIF
"Milliybank" AJ Bosh ofisi
MFO:00450
INN: 303293805
OKONX: 61110

Buyurtmachi:

Muborak tumani xalq ta'limi
bo'limi.Do'stlik MFY 17/1-uy tel
67-2-24-24 byudjetdan mablag'
oluvchi inn 200699328
Hisob-kitob raqami
401722860102347092100075001
O'z.Res.Moliya vazirligi
gaznachiligi.h /r
23402000300100001010
STIR 201122919 bank nomi
Markaziy bank Toshkent sh
boshqarmasi XKKM
MFO 00014
Rahbar: I.O.Usmonov

Rais:  D. Suyunova



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№ BX5622640278

1. Loyi haning turi

Muborak tuman Xalq ta'limi bo'limining, Xo'jalik shartnomalar oid, Pudrat shartnomasi to'g'risidagi loyiha yuzasidan quyidagilarni,

ANIQLADIM:

2. Loyi haning nomi

Muborak tuman Xalq ta'limi bo'limi, (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi,) nomidan Nizom asosida harakat qiluvchi I.Usmonov bir tomondan va Islombek Baraka-Invest MChJ (keyingi o'rinlarda pudratchi deb yuritiladi) nomidan Nizomi asosida harakat qiluvchi Islombek Baraka-Invest MChJ D. Suyunova ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

Pudratchi o'z tavakkalchiligiga asoslangan va o'zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig'iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini: tuzilgan loyiha sveta hujjatlariga asosan joriy tamirlash ishlarini bajarishni, Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini olish to'g'risida rasmiylashtirilgan mazkur shartnoma,

Shartnomaning umumiy qiymati: 239 000 000 (Ikki yuz o'ttiz to'qqiz million) so'mni tashkil etadi.

3. Loyi ha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Muborak tuman Xalq ta'limi bo'limi tomonidan 03.06.2022-yilda yuridik xizmat ko'rsatish markaziga taqdim etilgan. Yuqorida qayd etilganlarga asosan,

XULOSA QILDIM:

Loyi ha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblayman.

Markaz boshlig'i



E.E.Abdirahmonov

2022-yil "06" iyun.